



Publisher:
Fast support and result LLC

STDF

**SCIENCE TECHNOLOGY
&
DIGITAL FINANCE**

VOLUME|3 ISSUE|4
SEPTEMBER|2025



zenodo



INDEX  COPERNICUS
I N T E R N A T I O N A L



<https://bestjournalup.com/index.php/stdf>

VOLUME | 3 ISSUE | 4 SEPTEMBER | 2025

ТОМ | 3 ВЫПУСК | 4 СЕНТЯБРЬ | 2025

JILD | 3 SON | 4 SENTYABR | 2025

ISSN:2992-9199



OLIV TA'LIM TIZIMIDA SPIN-OFF KORXONALARINING AHAMIYATI

To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi

O'zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrasi assistenti.

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot oliy ta'lim tizimida spin-off korxonalarining o'rni, iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri, ularning rivojlanish mexanizmlari va O'zbekiston sharoitidagi imkoniyat hamda to'sqinliklarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot IMRAD modeli asosida tashkil etildi. Nazariy adabiyotlar, xalqaro tajribalar va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari faoliyati tahlil qilindi. Natijalar spin-off korxonalarini universitetlarni innovatsion ekotizim markaziga aylantirishini, ilmiy natijalarni tijoratlashtirishda asosiy mexanizm ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, huquqiy-me'yoriy bazani kuchaytirish, ventur kapital va mentorlik tizimlarini rivojlantirish kabi qator masalalar muhimligi aniqlangan.

Kalit so'zlar:

spin-off, oliy ta'lim, innovatsiya, tijoratlashtirish, universitet.

Email: nodira070495@gmail.com

©2025. To'ychiyeva Nodira

Published by Fast support and result LLC. This is an open access article under the CC BY-NC-ND license



[Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License.](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/)

Kirish

So'nggi o'n yilliklarda dunyoda oliy ta'lim muassasalari faqat bilim va kadrlar tayyorlash maskani sifatida emas, balki innovatsion iqtisodiyotning faol ishtirokchisi sifatida ham rivojlanmoqda. Universitetlar ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish orqali yangi texnologiyalarni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shu jarayonda spin-off korxonalarini muhim vosita sifatida maydonga chiqadi. Spin-off korxonalar deganda universitet yoki ilmiy muassasa tadqiqotlari asosida tashkil etilgan, innovatsion mahsulot va xizmatlarni bozorda joriy etishga ixtisoslashgan mustaqil tadbirkorlik sub'yekti tushuniladi. Bu korxonalar nafaqat yangi ish o'rinlari yaratadi, balki ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish orqali universitetlar uchun moliyaviy manba ham bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi

Bugungi kunda O'zbekiston ilmiy fan va ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish siyosatini faol amalga oshirmoqda. Prezident qarorlari bilan universitetlar huzurida texnoparklar, innovatsion markazlar va startap inkubatorlari tashkil etilmoqda. Shu jarayonda spin-off korxonalarini orqali ilmiy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu maqola oliy ta'lim tizimida spin-off korxonalarining ahamiyatini tahlil qilish, xalqaro tajriba asosida O'zbekiston sharoitiga mos takliflar ishlab chiqish va ularning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan omillarni aniqlashga qaratilgan. Spin-off korxonalarini oliy ta'lim tizimida qanday ahamiyatga ega? Xalqaro tajriba ularning muvaffaqiyati uchun qanday omillarni ta'kidlaydi? O'zbekiston sharoitida spin-off

korxonalarini rivojlantirish uchun qanday imkoniyat va muammolar mavjud?

Adabiyotlar sharhi

Akademik adabiyotlarda spin-off korxonalarini turlicha ta'riflanadi. Shane (2004) ularni "universitet yoki tadqiqot muassasasidan chiqib, u yerdagi ilmiy natijalarni tijoratlashtirish uchun tashkil etilgan kompaniyalar" sifatida ta'riflaydi. OECD (2019) esa spin-offlarni universitet-sanoat hamkorligining eng samarali shakllaridan biri deb baholaydi.

Spin-offlar odatda quyidagi uchta xususiyat bilan ajralib turadi:

-Ularning asoschisi yoki asosiy texnologiyasi universitet bilan bog'liq bo'ladi.

-Ular innovatsion mahsulot yoki xizmat yaratishga ixtisoslashadi.

-Ularning faoliyati ilmiy natijalarni tijoratlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

AQSh: MIT va Stanford universitetlari yuzlab spin-off kompaniyalar yaratgan bo'lib, ular Silikon vodiysining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan (Etzkowitz, 2002).

Germaniya: Fraunhofer institutlari huzuridagi spin-offlar yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Janubiy Koreya: universitetlar innovatsion texnologiyalarni spin-offlar orqali milliy ishlab chiqarishga tatbiq etmoqda, bunda davlat grantlari muhim rol o'ynaydi.

Spin-offlarning ahamiyati haqidagi tadqiqotlar

Caputo va boshqalar (2022) ta'kidlaganidek, spin-offlar nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki hududiy innovatsion tizimlarning rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Ular yangi biznes modellari, yuqori texnologiyali mahsulotlar va xizmatlarni yaratib,

mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshiradi.

TIM Review (2014) esa spin-offlarni “universitet tadqiqotlaridan bozorga yo‘l ochuvchi eng muhim vosita” deb ataydi.

Tadqiqot metodlari

Ushbu tadqiqot aralash (mixed-methods) yondashuv asosida olib borildi. Maqsad — oliy ta‘lim tizimida spin-off korxonalarining ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitidagi imkoniyatlarni baholash.

Nazariy-analitik yondashuv

Ilmiy maqolalar, kitoblar, xalqaro tashkilotlar (OECD, UNCTAD, World Bank) hisobotlari va hukumat siyosiy hujjatlari o‘rganildi. Asosiy e‘tibor universitet spin-offlari haqidagi nazariy model va konsepsiyalarga qaratildi (Shane, 2004; Caputo va boshq., 2022).

Siyosat va huquqiy bazani tahlil qilish

O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi qarorlari, normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Jumladan, oliy ta‘lim muassasalari huzurida texnoparklar va startap inkubatorlarini tashkil etish bo‘yicha qarorlar, “Ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish to‘g‘risida”gi qonun asosiy hujjatlar sifatida ko‘rib chiqildi.

Empirik kuzatuv

Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va boshqa yirik OTMlarda yaratilgan spin-off loyihalarining faoliyati kuzatildi. Ularning moliyaviy manbalari, tadbirkorlik faoliyati va sanoat bilan hamkorligi haqidagi ochiq manbalar asosida ma‘lumotlar yig‘ildi.

Taqqoslash usuli

O‘zbekiston tajribasi AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya kabi davlatlarning spin-off modeli bilan solishtirildi. Bu taqqoslash orqali mahalliy tizimning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot jamoatchilikka ochiq manbalarga asoslangan. Spin-offlarning aniq moliyaviy ko‘rsatkichlari va ichki hisobotlari mavjud emasligi natijalarni umumlashtirishda ayrim cheklovlar keltirib chiqardi.

Natijalar

Spin-off korxonalarining iqtisodiy ahamiyati

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, spin-off korxonalari quyidagi iqtisodiy natijalarni beradi:

Innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratadi. Masalan, dasturiy ta‘minot, mobil ilovalar, yangi texnologik qurilmalar.

Ish o‘rinlari yaratadi. Universitet bitiruvchilari va yosh olimlar o‘z g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etib, ish bilan ta‘minlanadi.

Universitet daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi. Spin-offlar universitetga ulush to‘lashi yoki litsenziya asosida daromad keltirishi mumkin.

Ta‘limiy ahamiyat

Spin-off korxonalari nafaqat iqtisodiy, balki ta‘limiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi:

Talabalarga amaliy tajriba beradi. Ularni startap va biznes yuritish ko‘nikmalariga o‘rgatadi. OTMda o‘qish jarayonini bozor talablariga moslashtiradi.

O‘zbekiston sharoitidagi natijalar UNCTAD (2024) va World Bank (2020–2024) hisobotlariga ko‘ra, O‘zbekiston texnoparklari va startap ekotizimi rivojlanish bosqichida. Lekin

venchur kapital, mentorlik va ilmiy ishlanmalarning tijoratlashtirilishi bo'yicha hali to'liq tizim shakllanmagan. Ayrim universitetlarda spin-off korxonalari mavjud bo'lsa-da, ularning soni va sifati yetarli darajada emas. Asosan, kichik IT-startaplar yoki texnik qurilmalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik kompaniyalar shaklida mavjud.

Xalqaro tajriba bilan solishtirish AQSh: MIT va Stanford universitetlari minglab spin-off kompaniyalar yaratgan bo'lib, ularning umumiy daromadi milliardlab dollarni tashkil etadi.

Germaniya: Fraunhofer institutlari tajribasi spin-offlar orqali yangi texnologiyalarni sanoatga tatbiq etishda juda samarali model hisoblanadi.

Janubiy Koreya: davlat grantlari va texnoparklar spin-offlarning tez rivojlanishini ta'minlaydi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, spin-off korxonalari muvaffaqiyatli bo'lishi uchun quyidagi omillar muhim:

Universitetning intellektual mulk siyosati aniq belgilangan bo'lishi.

Proof-of-concept grantlari orqali ilmiy g'oya dastlabki sinovdan o'tishi.

Mentorlik va tajribali rahbarlar ishtiroki.

Bozor aloqalari va sanoat bilan hamkorlik.

Davlat siyosati tomonidan soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjudligi.

Muhokama

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi oxirgi yillarda tub islohotlar bosqichiga kirdi. Universitetlar huzurida texnoparklar, innovatsion markazlar va startap inkubatorlari tashkil etilishi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish uchun zamin yaratmoqda. Misol uchun,

Toshkent axborot texnologiyalari universitetida IT-startaplar uchun inkubatsiya markazi yo'lga qo'yilgan, Toshkent davlat texnika universitetida esa muhandislik ishlanmalari asosida spin-offlar yaratilmoqda.

Biroq mavjud imkoniyatlarga qaramay, spin-offlar soni va sifati hali xalqaro darajaga chiqqan emas. Bu holat ko'proq venchur kapital bozorining zaifligi, mentorlik infratuzilmasining yetishmasligi va universitetlarda intellektual mulk siyosatining noaniqligi bilan bog'liq.

Xalqaro tajribadan olinadigan saboqlar

AQSh tajribasi: MIT va Stanford spin-offlari shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyat uchun universitet ichida professional Technology Transfer Office (TTO) bo'lishi shart. Ular patentlash, litsenziyalash va investorlar bilan muzokara yuritishda vositachi sifatida faoliyat yuritadi.

Germaniya: Fraunhofer institutlari spin-offlarni davlat grantlari bilan qo'llab-quvvatlaydi, lekin keyinchalik ular sanoat bilan bevosita hamkorlikka o'tadi. Bu model ilmiy ishlanmalarning tezroq amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlaydi.

Janubiy Koreya: hukumat universitet spin-offlarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar yaratgan. Masalan, talaba va yosh olimlarning spin-offlari uchun soliq imtiyozlari va subsidiya ajratiladi.

O'zbekiston uchun dolzarb muammolar

Qonunchilikdagi bo'shliqlar — universitet va tadqiqotchilarning spin-offlardagi ulushlari aniq belgilanmagan.

Moliyalashtirish muammosi — venchur fondlar deyarli yo'q, spin-offlar ko'pincha faqat grantlarga tayanadi.

Biznes ko'nikmalarining yetishmasligi — tadqiqotchilar ilmiy jihatdan kuchli bo'lsa-da, startapni boshqarish va marketing bo'yicha tajribaga ega emas.

Bozor bilan uzilish — ilmiy ishlanmalar ko'pincha real sektor talablariga moslashtirilmagan bo'ladi.

Xulosa va tavsiyalar

Spin-off korxonalarini oliy ta'lim tizimida ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytiruvchi asosiy mexanizm sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ular ilmiy natijalarni tijoratlashtirish, talabalarga amaliy tajriba berish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotning innovatsion rivojiga xizmat qilishda beqiyos rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishda dastlabki qadamlar tashlangan bo'lsa-da, xalqaro tajriba ko'rsatganidek, spin-offlarning barqaror rivojlanishi uchun kompleks siyosiy va institutsional choralar talab etiladi.

Tavsiyalar

1. Proof-of-concept grantlari yaratish

Izoh: Spin-offlarning muvaffaqiyati uchun ilmiy g'oya bozorda sinovdan o'tishi zarur. Shu maqsadda universitetlar qoshida kichik miqdordagi (10–50 ming dollar) proof-of-concept grantlari tashkil etilishi kerak.

Xalqaro tajriba: AQShda NSF (National Science Foundation) grantlari shunday dastlabki moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

2. Technology Transfer Office (TTO)larni kuchaytirish
Izoh: Har bir universitetda patentlash, litsenziyalash va investorlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar faoliyat yuritishi zarur.

Xalqaro tajriba: MIT TTO'si dunyodagi eng muvaffaqiyatli texnologiya transfer ofislaridan biri

bo'lib, yuzlab spin-offlarni yaratishda muhim rol o'ynagan.

3. Mentorlik va startap akseleratsiya dasturlarini rivojlantirish

Izoh: Yosh olimlar va talabalar biznes yuritish ko'nikmalariga ega emas. Ular uchun mentorlik dasturlari zarur. Xalqaro tajriba: Germaniyada EXIST dasturi yosh tadbirkorlarni nafaqat moliyaviy, balki mentorlik orqali ham qo'llab-quvvatlaydi.

4. Venchur kapital bozorini shakllantirish

Izoh: Spin-offlar grantlar bilan cheklanmasligi uchun xususiy venchur kapital fondlari tashkil etilishi lozim. Xalqaro tajriba: Janubiy Koreyada universitet spin-offlari hukumat grantlari va venchur kapitalni birgalikda jalb etish orqali tez rivojlanmoqda.

5. Universitet ulush siyosatini optimallashtirish

Izoh: Ba'zi hollarda universitet spin-offlardan juda katta ulush talab qiladi, bu esa tadqiqotchilarni motivatsiyasini pasaytiradi. Ulush siyosati adolatli bo'lishi zarur. Xalqaro tajriba: Buyuk Britaniyada so'nggi yillarda spin-offlar ulush siyosatini optimallashtirish bo'yicha mustaqil ko'rib chiqish o'tkazilgan.

6. Bozor bilan integratsiyani kuchaytirish

Izoh: Spin-offlar real sektor bilan hamkorlik qilmasa, ularning mahsulotlari bozorda muvaffaqiyat qozonishi qiyin. Xalqaro tajriba: Fraunhofer institutlari Germaniyada spin-offlarni sanoat buyurtmalari asosida shakllantiradi.

7. Kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlari

Universitet spin-offlarining moliyaviy samaradorligini kvantitativ baholash. Spin-offlarning hududiy

iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini o'lchash. O'zbekiston universitetlarida yaratilgan spin-offlarning muvaffaqiyat omillarini case-study asosida tahlil qilish. Spin-offlarda intellektual mulk siyosatini optimallashtirish bo'yicha empirik tadqiqot o'tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shane, S. (2004). *Academic Entrepreneurship: University Spinoffs and Technology Transfer*. Edward Elgar Publishing.
2. Caputo, A., & boshq. (2022). *University spin-offs: entrepreneurship, growth and regional impact*. Higher Education.
3. OECD. (2019). *University-Industry Collaboration: New Evidence and Policy Options*. OECD Publishing.
4. UNCTAD. (2024). *Science, Technology and Innovation Parks in Uzbekistan: Assessment and Policy Issues*. United Nations.
5. World Bank. (2020–2024). *Modernizing Uzbekistan National Innovation System — MUNIS*. Project documents.
6. Etzkowitz, H. (2002). *MIT and the Rise of Entrepreneurial Science*. Routledge.
7. TIM Review. (2014). *University Spinoffs: What, Why, and How?*. Technology Innovation Management Review.
8. Kamolov D., Ismoilova D. RAQAMLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 301-306.
9. UK Government (2023). *Independent Review of University Spin-out Companies*. London.
10. Dostonbek K. SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY

//Social science and innovation. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 128-133.

11. Kamolov D., Ismoilova D. THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //Science technology&Digital Finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 301-306.

12. Khaydarov B., Tuychieva N. INNOVATIVE TEACHING METHODS FOR COMPUTER SCIENCE AND EDUCATIONAL ROBOTICS //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 14-19.

13. Tuychieva N., Saitov S. Bank resources in the modernization of the economy //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 41-52.

14. Хайдаров Б., Туйчиева Н. Инновационные методы обучения информатике и образовательной робототехнике //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – C. 200-204.

15. Saitov S., Tuychieva N. Main factors affecting economic growth in the country and their dynamics //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 53-64.

16. Sirojiddin S., Nodira T., Dinora S. Characteristics of price and formation //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 265-270.

17. Tuychieva N., Haydarov B., Rashidova G. Money-credit system in uzbekistan //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 246-250.

18. Nodira T., Sirojiddin S., Azizbek Z. Socio-economic systems //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 260-264.